



NAVOIY VILOYATI G‘OZG‘ON SHAHAR HOKIMINING FARMOYISHI

2026-yil 8-yanvar

1-5-210-F/26

G‘ozg‘on shahar hokimligi

Xizmat avtomashinasini birlashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-apreldagi “Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida xizmat avtotransport vositalaridan foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 258-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

1. G‘ozg‘on shahar hokimligi balansidagi “Nexia-3” rusumli, davlat raqami **85 035 DAV** bo‘lgan xizmat avtomobili shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i **Zoyirov Nodirjon Adilbayevichga;**

G‘ozg‘on shahar hokimligi balansidagi “Nexia-3” rusumli, davlat raqami **85 037 DAV** bo‘lgan xizmat avtomobili shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari **Shodiyev Ruslan Xudoynazar o‘g‘liga;**

G‘ozg‘on shahar hokimligi balansidagi “Nexia-3” rusumli, davlat raqami **85 036 DAV** bo‘lgan xizmat avtomobili shahar hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari **Qodirov Mash‘al Qahramonovichga;**

G‘ozg‘on shahar hokimligi balansidagi “Nexia-3” rusumli, davlat raqami **85 034 DAV** bo‘lgan xizmat avtomobili shahar hokimi o‘rinbosari - shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i **Bo‘ronov O‘tkir O‘ktamovichga** birlashtirib berilsin.

2. Shahar hokimining o‘rinbosarlari (**N.Zoyirov, R.Shodiyev M.Qodirov, O‘.Bo‘ronov**)ga birlashtirilgan avtomobildan samarali foydalanish, texnik holatini doimiy nazorat qilish, avtomobilni soz holatda saqlash vazifalari yuklatilsin.

3. Shahar hokimligi xo‘jalik mudiri F.Bomullayevga:

- G‘ozg‘on shahar hokimligi balansidagi “Nexia-3” rusumli davlat raqami **85 034 DAV, 85 035 DAV, 85 036 DAV, 85 037 DAV** bo‘lgan avtomobillarning

texnik holati bo'yicha biriktirilgan xodimlarga topshirish va qabul qilish ishlarini dalolatnoma asosida rasmiylashtirish hamda xizmat avtomobillaridan foydalanish holatini doimiy nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Shahar hokimi



N.Jo'rayev